

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA QUROQCHILIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH

Hamdamova Nozima Muqimovna

Falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent

Xayrullayeva Nozima Boboqulovna

Buxoro davlat Pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10547631>

Annotatsiya: yosh avlodga milliy hunarmandchiliklarimizdan biri bo'lmish quroqchilik ilmini o'rgatish va bu orqali ularga milliylikimizni ulug'lashimizni anglashga yordam berish.

Kalit so'zlar: quroq, gazlama, texnologiya, mato, turizm, g'ilof

USE OF DROUGHT ELEMENTS IN TECHNOLOGY LESSONS

Abstract: To teach the young generation the science of drying, which is one of our national crafts, and through this help them to understand that we glorify our nationality.

Keywords: dry, gauze, technology, fabric, tourism, case

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭЛЕМЕНТОВ ЗАСУХИ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ

Аннотация: Обучить молодое поколение науке сушки, которая является одним из наших национальных ремесел, и через это помочь им понять, что мы прославляем свою национальность.

Ключевые слова: сухая, марля, технология, ткань, туризм, футляр.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.11.2019 yildagi PQ-4539-son qarorida, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish to'g'risida so'z boradi.

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilik, xalq badiiy va amaliy san'atini rivojlantirish, bu orqali xalqimizning boy madaniy merosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish, band bo'lmagan aholini, ayniqsa yoshlar, ayollar va kam ta'minlangan oilalarni hunarmandchilikka keng jalb etish orqali ularning ish bilan bandligini ta'minlash maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, "Hunarmand" uyushmasi, Madaniyat vazirligi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining respublika hududlarini hunarmandchilik faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ixtisoslashtirish va ularga hunarmandchilik mahsulotlarini chet el bozorlarida namoyish etish va sotish uchun ko'maklashish maqsadida O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini birlashtirish to'g'risidagi takliflari 1-ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Belgilab qo'yilsinki, O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari "Hunarmand" uyushmasi, Savdo-sanoat palatasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari murojaatiga asosan o'ziga birlashtirilgan hududlardan boshqa hududlarda faoliyat yurituvchi hunarmandlar mahsulotlarini chet elda namoyish etish va sotishda ham har tomonlama amaliy yordam ko'rsatadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi (Ne'matov) Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Qudratov), Savdo-sanoat palatasi (Ikramov), "Hunarmand" uyushmasi (Abdullayev) bilan birgalikda respublikaning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarini orqali mazkur vakolatxonalar joylashgan va boshqa yirik shaharlarda hunarmandlarga o'z mahsulotlarini namoyish etish va sotish uchun milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati mahsulotlarini keng

targ'ib qilish, yangi bozorlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi "savdo uylari" va milliy hunarmandchilik mahsulotlari do'konlarini tashkil etish choralarini ko'rsin.

3. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiyasi, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi va "Hunarmand" uyushmasining:

ASOSIY QISM

"Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogi"ni (keyingi o'rinlarda — Milliy katalog) joriy etish;

"Turizm sohasida faoliyat yuritayotgan hunarmandlar reyestri"ni (keyingi o'rinlarda — Reyestr) yuritish;

Xalq amaliy san'ati ustalarining milliy katalogiga kiritiladigan nomzodlarni tanlash bo'yicha kengashni (keyingi o'rinlarda — Kengash) tuzish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Bundan tashqari qator yangilik va o'zgartirishlar kiritilib ularni ijrosi ta'minlandi.

Avvalo, hunarmandchilik so'zining asl ma'nosini izohlaydigan bo'lsak, har xil mehnat qurollari yordamida mavjud xom-ashyodan chiroyli buyumlar ishlab chiqariladigan hunarlarning umumiy nomi hunarmandchilik deb yuritiladi. Bizga momolarimiz tomonidan avloddanavlodga meros bo'lib kelayotgan milliy hunarmandchiligimizning sirasrorlari saqlanib, o'rganilib kelmoqda. Ana shunday hunarlardan biri "Quroq" usulida milliy kiyimlar va buyumlar tikish san'atidir.

Quroq — mayda bo'laklarni ulab, to'plab, bezak yaratish, shu usulda yasalgan bezak, buyum ham quroq deb ataladi. Turli rang va shakldagi mato parchalaridan buyum, bezak hosil qilinadi. Amaliy san'atda keng tarqalgan ko'rpacha, ko'rpa, choyshab, so'zana, dasturxon, gilam va bohqa jihozlar qadimdan shu usulda tayyorlanib, ajoyib san'at namunalari yaratiladi. Ba'zi manbalarda esa quyidagicha tarif berilgan.

Quroq – bu bitta buyumda rangi va fakturasi turlicha bo'lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan yostiq jildlari, ko'rpa, divan va stul uchun g'iloqlar, gilamchalar, shuningdek, kiyimlar uchun bezak va to'ldiruvchi detallar tayyorlash mumkin. Quroq texnologiyasida istalgan gazlamadan, ham yangi, ham avval ishlatilgan gazlamadan foydalanish nazarda tutiladi. Yangi gazlamani ishlatishdan avval dekatirovka (ipak va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli), bug'lash lozim, shunki bitta buyumda ikki xil gazlama ishlatilishi natijasida, buyum yuvilgandan so'ng o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarini esa kraxmallash va dazmollash kerak. Paxta tolali gazlama qoldiqlari ishlash uchun qulay hisoblanadi. Ulardan ushlagich, salftokalar, choynak uchun isitgichlar, ko'rpa, gilamcha, yostiq jildlari va hatto kiyimlar ham tayyorlash mumkin. Paltoligazlamalar yumshoq va egiluvchan bo'ladi, ularni gilamlar, stullarga g'iloqlar va pannolar tayyorlash uchun ishlatiladi.



1-rasm.Quroqdan tikilgan buyumlar.

Shoyi gazlamalarni kraxmallangandan keyin xuddi paxta tolali gazlama qoldiqlaridan tayyorlanadigan buyumlarda ishlatish mumkin, lekin ular uzoqqa bormaydi. Agar tayyorlanayotgan buyum uchun turli fakturali gazlama bo'laklarini birlashtirish shart bo'lmasa, uni bir turdagi gazlamadan tayyorlangani yaxshi bo'ladi. Ko'p hollarda sidirg'a gazlama bilan turli fakturadagi gazlamalarni birlashtirish yaxshi natijalarni beradi. Kerakli ish qurollari. Quroq tikishda avval ish qurollarini to'g'ri tanlash kerak. Bu jarayonda gazlamalar, ignalar, iplar, o'tkir qayshi, to'g'nog'ichlar, turli rangdagi qalamlar va ochgich, karton yoki qalin qog'ozlar, chizg'ichlar, gardishlar va turli shablonlar kerak bo'ladi. Quroq buyumda ko'pincha naqsh gullari bir xil shaklli va o'lchamli alohida elementlardan iborat bo'ladi. Bichishda qulay bo'lishi uchun karton yoki qattiq qog'ozdan shablonlar tayyorlanadi. Kartonda kerakli elementni (kvadrat, ushburchak, oltiburchakva hakozo) chokhaqisiz chizib olinadi. So'ngra hamma tomonidan 0,5-0,7 sm chok haqi qoldirib ikkinshi chiziqni o'tkazamiz. Shundan so'ng, ichki va tashqi kontur chiziqlari bo'yicha ehtiyotkorlik bilan o'tkir uchli qaychida qirg'iladi. Bunday shablonni joylashtirishda gazlama bo'lagining eng chiroyli joyini ham tanlab olishga qulaydir. Gazlama bo'lagidan kerakli elementni bichish uchun, gazlamaning teskari tomoniga shablonni qo'yib ham ichki, ham tashqi konturlarini qalam bilan shiziladi. Bunda gazlama rangiga kontrast bo'lgan rangli qalamlardan foydalanish tavsiya etiladi. Gazlama bo'lagiga chizilgan chiziqning tashqi konturi bo'ylab qirg'iladi, ishki konturi bo'ylab esa ikkita detal birlashtirib tikiladi.



2-rasm.Turna quroq turi.

Quroq texnikasida hamma geometrik naqshlarni 3 ta guruhga ajratish mumkin: ushburchaklar, yo‘l-yo‘lli, spiral.Ushburchaklar. Bu naqshlarni bajarishda teng yonli ushburchaklar birlashtiriladi. Kvadrat ishida kvadrat. Ishni bajarish ketma-ketligi rasmda raqamlar bilan ko‘rsatilgan. Avval ishki kvadrat tikib olinadi. So‘ngra uning yon tomonlariga 4 ta ushburchak tikiladi. Hosil bo‘lgan kvadratning atroflarini qirqib to‘g‘rilanadi, so‘ngra keyingi ushburchak tikiladi va hokazo. O‘z navbatida ushburchak ikkita ushburchakdan ham iborat bo‘lishi mumkin.Naqsh yanada ifodaliroq ko‘rinishi uchun kvadratlarni och va to‘q ranglar bilan almashtirib bajarish kerak. Tegirmon Buning uchun avval ikkita ushburchakdan diagonali bo‘yicha birlashtirilgan 4 ta kvadratni tayyorlab olinadi. So‘ngra bu kvadratlarning ikkitadan, keyin hammasi birlashtiriladi. Bunda ranglar kontrastligiga e‘tibor berish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytsek hozirki kunda texnologiya fani rivojlantirish uchun turli xil metodlar orqali amalga oshirimiz kerak. Hozirki kunda xalaq hunarmandchilikgini rivojlantirish uchun quroqchilik ishlarini amalga oshirishda zamonaviy quroq usullari bilan rivojlantirish zarur. Yoshlarga milliy hunarmandchiligimizni o‘rgatish, saqlab qolish va rivojlantirishni oldimizga maqsad qilib qo‘yishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA TA‘LIMI O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI OSHIRISH VA AMALIY MASHG‘ULOT DARSLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH Savurova Shahrizoda Abdumalik qizi , Mo‘minov Sarvar Qo‘chqorovich

2. Hamdamova, N. M., Barotov, M. H., & Shoyimova, M. R. (2023). O‘QUVCHILARNING TEXNIK IJODKORLIK KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 248–252. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1338>
3. Barotov M. H., “Texnologiya va dizayn” modulining mashg’ulotlarida steam texnologiyalaridan foydalanib, mavzularni takomillashtirish texnologiyasi
4. INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “TOPICAL ISSUES OF SCIENCE” <https://doi.org/10.5281/zenodo.7236434>
5. LXXV INTERNATIONAL CORRESPONDENCE SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY 16.03.2022 yil. 106-108 betlar. <https://internationalconference.ru/images/PDF/2022/75/history-of-beads.pdf>
6. Muqimovna K. N. DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY OF STUDENTS WITH THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. – C. 44-49.
7. CURRENT APPROACHES AND NEW RESEARCH IN MODERN SCIENCES, 1(4), 67–69. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7229240>
8. BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ELEKTRON KUTUBXONASI.